

**MUTAXASSISNING FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDAGI
PROTSESSUAL ISHTIROKI: NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI**

*Ibragimova Rayxon Shodmon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti.*

E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola fuqarolik sud ish yurituvida maxsus bilimlarni qo'llashning muhim shakli bo'lgan mutaxassis institutining protsessual ishtirokiga bag'ishlangan. Maqolada mutaxassisning odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatidagi huquqiy maqomi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutaxassis va ekspert o'rtasidagi farqlar, mutaxassis tushuntirishlarining isbotlashdagi ahamiyati, ularni rasmiylashtirish tartibi hamda mutaxassisning noto'g'ri maslahat berganlik uchun javobgarligi masalalari o'rganilgan. Amaliyotda uchraydigan muammolar, mutaxassis institutining yetarlicha tartibga solinmaganligi, sudlarning mutaxassis maslahatiga turlicha munosabat bildirishi va javobgarlik mexanizmining mavjud emasligi tahlil qilingan hamda mazkur sohani takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *mutaxassis, fuqarolik sud ish yurituvi, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxs, protsessual maqom, maxsus bilimlar, isbot kuchi, ekspert, maslahat, javobgarlik, sud amaliyoti, qiyosiy huquq.*

Fuqarolik sud ish yurituvida ishning to'g'ri va qonuniy hal etilishi ko'pincha maxsus bilimlarni talab qiladi. Bunday bilimlarga ega bo'lgan shaxslar – mutaxassislar – odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi muhim ishtirokchilar sifatida protsessga jalb qilinadi. Biroq mutaxassisning protsessual maqomi, uning ishtiroki doirasi, xulosalari va tushuntirishlarining isbotlashdagi ahamiyati, shuningdek, uni javobgarlikka tortish masalalari fuqarolik protsessual huquqining eng munozarali va yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston qonunchiligida mutaxassis instituti ekspert institutiga nisbatan ancha kam tartibga solinganligi sababli, sudlar va tomonlar ko'pincha qanday holatda mutaxassisni jalb qilish kerakligi, uning fikri sud uchun majburiy yoki tavsiyaviy ekanligi, hamda mutaxassis tomonidan berilgan noto'g'ri maslahat oqibatida yuzaga keladigan huquqiy javobgarlik masalalarida noaniqliklarga duch kelmoqda. Mazkur maqolada mutaxassisning fuqarolik protsessidagi protsessual o'rni nazariy jihatdan tahlil qilinadi, xorijlik va O'zbekiston olimlarining qarashlari o'rganiladi, shuningdek, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarga oydinlik kiritiladi va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Mutaxassisning fuqarolik protsessidagi ishtirokining huquqiy tabiati to‘g‘risida turli ilmiy qarashlar mavjud. Ilmiy munozarda protsessualist olimlar mutaxassisni «ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatoriga kirmaydigan, lekin o‘zining maxsus bilimlari bilan sudga yordam beruvchi shaxs¹» deb ta’riflashadi. Ushbu ta’rif mutaxassisning protsessual mustaqilligini va uning natijadan manfaatdor bo‘lmagan subyekt ekanligini to‘g‘ri aks ettiradi. Ukraina olimi, huquq fanlari doktori S.Y.Fursa esa mutaxassisning protsessual maqomini yanada aniqroq belgilab, uning asosiy vazifasi «texnik va maslahat xarakteridagi yordam ko‘rsatishdan iborat» ekanligini ta’kidlaydi². Bu jihatdan mutaxassis ekspertdan tubdan farq qiladi, chunki ekspert protsessning mustaqil ishtirokchisi sifatida o‘z xulosasini taqdim etadi va bu xulosa isbot vositasi hisoblanadi.

Yana bir rus huquqshunosi, professor I.K.Orlov o‘z monografiyasida «mutaxassis – bu ishning holati yuzasidan shaxsiy qiziqishlari mavjud bo‘lmagan shaxs³» degan qarashni ilgari surgan holda, mutaxassisning protsessual manfaatdor emasligini alohida ta’kidlaydi. Aynan mana shu xususiyat – ish natijasiga qonuniy qiziqishning yo‘qligi – mutaxassisni taraflar, uchinchi shaxslar va boshqa manfaatdor ishtirokchilardan ajratib turadi. I.L.Petruxinning ta’kidlashicha, «mutaxassis sudga ekspertiza tayinlash zarurligi to‘g‘risida masala qo‘yishga yordam beradi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi va o‘z vakolati doirasida tushuntirishlar beradi⁴». Garchi bu yondashuvlar asosan jinoyat protsessiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, fuqarolik protsessi uchun ham o‘xshash nazariy asoslar qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekistonlik olimlar ham mutaxassis institutiga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Toshkent davlat yuridik universiteti professori D.Y.Xabibullayevning «Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o‘zaro tahlili» nomli maqolasida ta’kidlanishicha, «odil sudlovni amalga oshirishda sudya mustaqilligini ta’minlash bilan birga, ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning, jumladan, maxsus bilimlarni qo‘llaydigan mutaxassislarning ham huquqlarini to‘liq amalga oshirish zarur⁵». Bu holat mutaxassisning protsessual kafolatlari tizimini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi Sh.Abduvahobov o‘zining «Sud ish yurituvda maxsus bilimlardan foydalanishning nazariy va amaliy muammolari» nomli tadqiqotida mutaxassis faoliyatidagi muhim muammoni ko‘taradi: «Qonunda mutaxassis

¹ Васильковский Е.В. Учебник гражданского процесса / Е.В. Васильковский. - Москва: Типо-литография А. Э. Ландау. - 412 с.

² Фурса С.Я. Гражданский процесс Украина / С.Я. Возможность. – Киев: Юринком Интер, 2018.

³ Орлов И.К. Специалист в уголовном процессе: монография / И.К. Орлов. – Москва: Проспект, 2015.

⁴ Петрухин И.Л. Специалист как участник уголовного судопроизводства / И.Л. Петрухин // Журнал российского права. – 2016. – № 8. – С. 45-53.

⁵ Xabibullayev D.Y. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o‘zaro tahlili / D.Yu. Habibullayev // “Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024. – №4. – B. 12-24.

faoliyatining ushbu yo‘nalishlari natijalarini rasmiylashtirishning protsessual tartibi belgilanmagan⁶». Haqiqatan ham, amaliyotda mutaxassis tomonidan berilgan og‘zaki yoki yozma tushuntirishlarning qanday shaklda rasmiylashtirilishi, ularning isbotiy ahamiyati qanday baholanishi masalalari ochiqlicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasiga binoan, dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashda maslahatlar (tushuntirishlar) berish yo‘li bilan ko‘maklashish hamda ilmiy-texnika vositalarini qo‘llashda yordam berish maqsadida fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan, ishning yakunidan manfaatdor bo‘lmagan voyaga etgan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin⁷.

U ekspert xulosasini baholamaydi, biroq uni tushuntirib berishi mumkin. Mutaxassis o‘z fikrini bildirsa-da, bu fikr ekspert xulosasi darajasida huquqiy ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu shaxsning suddagi maqomi fuqarolik protsessining obyektiv va adolatli yuritilishi, ayniqsa, taraflarning tengligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mutaxassis sud ishining mohiyatini aniqlashtirish, dalillarni tahlil qilish, turli ixtisoslashtirilgan muammolarni yechish orqali sudga real ko‘mak beradi⁸.

Nazariy jihatdan mutaxassis va ekspert o‘rtasidagi farqni aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda, jumladan, Yevropa Ittifoqining sud-expertiza tizimi bo‘yicha qo‘llanmasida qayd etilishicha, «asosiy farqlovchi belgilar quyidagilardan iborat: mutaxassisning xulosalari va maslahatlari, ekspert xulosasidan farqli o‘laroq, fuqarolik protsessida isbot vositalariga taalluqli emas; mutaxassis xulosasi maxsus tadqiqot natijasi emas, balki mavjud bilimlarni qo‘llash orqali beriladigan tushuntirishdir; qonunchilikda ekspert shaxsiga va ekspert xulosasining shakli va mazmuniga aniq talablar belgilangan, mutaxassisga nisbatan esa bunday talablar mavjud emas⁹».

I.Petrova, D.Chekin va K.Sylenoklarning fikricha «protsessual qonunchilik normalarini tahlil qilish asosida fuqarolik va iqtisodiy protsessda maxsus bilimlarni qo‘llashning bir qancha shakllarini ajratish mumkin: sud ekspertizasi; ishtirokchilarni protsessga jalb qilmasdan bilimdon shaxslarning ekspertizasi; bilimdon shaxslarni fuqarolik yoki iqtisodiy protsessda ishtirok etishga jalb qilish; sud ekspertizalari

⁶ Abdurahobov Sh. Sud ish yurituvda maxsus bilimlardan foydalanishning nazariy va amaliy muammolari / Sh. Abdurahobov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 210 b.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y.

⁸ R.Ibragimova. Fuqarolik sud ish yurituvda ekspert va mutaxassislarning huquqiy maqomi va o‘rni.// Odillik mezoni - ilmiy-amaliy huquqiy jurnali.-2026.

⁹ ENFSI (European Network of Forensic Science Institutes) Guidelines for the Use of Expert Witnesses in Civil Proceedings / ENFSI. – 2020.

natijalaridan foydalanish¹⁰». Ushbu tasnif mutaxassis ishtirokining turlicha shakllarini farqlash imkonini beradi va amaliyotda qaysi holatda mutaxassisni jalb qilish maqsadga muvofiq ekanligini belgilashga yordam beradi.

O‘zbekistonning amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi sudga maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalar yuzaga kelganda ekspertiza tayinlash huquqini beradi. Biroq kodeksda mutaxassisni protsessga jalb qilishning mustaqil instituti to‘liq tartibga solinmagan. Xususan, FPK ning 62-moddasiga ko‘ra, mutaxassis sifatida chaqirilgan shaxs o‘zining nima maqsadda sudga chaqirilayotganligini bilish, agar maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa, ish yuritishda ishtirok etishni rad qilish, protsessual harakat ishtirokchilariga sudning ruxsati bilan savollar berish, dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashga ko‘maklashayotganida, ilmiy-texnika vositalari qo‘llanishi, ekspertiza tayinlanishi uchun materiallar tayyorlayotganida o‘zi qilgan harakatlar bilan bog‘liq holatlarga protsessual harakat ishtirokchilarining e‘tiborini qaratish, o‘zi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi bilan, shuningdek sud majlisi bayonnomasining tegishli qismi bilan tanishish hamda o‘z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning kechishi va natijalari qayd qilinishining to‘liqliligi va to‘g‘riligi xususida bayonnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan arzlari va fikrlarni bildirish, ish yuritishda protsessual harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etish bilan bog‘liq holda qilgan xarajatlarining o‘rni qoplanishi kabi huquqlarga ega.

Qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, Xorijiy tajriba ham O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda muhim manba bo‘la oladi. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi (§ 144 ZPO) sudga «o‘z xarajatlari evaziga mutaxassislarni jalb qilish va ularni so‘roq qilish huquqini beradi¹¹». Fransiya protsessual qonunchiligida «expertise judiciaire» va «consultation technique¹²» o‘rtasida aniq farqlar mavjud.

O‘zbekiston qonunchiligida mavjud holatni hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish masalalari yuzaga keladi. Amaliyotda mutaxassis ishtirokiga oid bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, mutaxassis tomonidan berilgan tushuntirishlarning isbotiy ahamiyati masalasi. Ba’zi hollarda sudlar mutaxassis tushuntirishlarini dalillar qatorida baholasa, boshqa hollarda ularga e‘tibor bermaslik mumkin.

Ikkinchidan, mutaxassisni protsessga jalb qilish tartibining qonuniy jihatdan to‘liq emasligi. Kodeksda sud tashabbusi bilan yoki tomonlarning iltimosiga ko‘ra mutaxassisni chaqirishning aniq mexanizmi belgilanmagan. Tomonlar tomonidan

¹⁰ Петрова И., Чекин Д., Силенок К. Специалист по гражданско-экономическому судопроизводству / И. Петрова, Д. Чекин, К. Силенок // КонсультантПлюс [Электронный ресурс]. – 2019.

¹¹ Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi (Zivilprozessordnung – ZPO, § 144). – URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>

¹² Fransiya protsessual qonunchiligi (Code de procédure civile). – URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/>

taklif qilingan mutaxassisning malakasini tekshirish, uning manfaatdorligini aniqlash, va nihoyat, uning ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi amaliyotda turlicha qo'llaniladi.

Uchinchidan, mutaxassisning noto'g'ri yoki yolg'on maslahat berganligi uchun javobgarligi masalasi ochiqlicha qolmoqda. Ekspert yolg'on xulosa berganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortilsa¹³, mutaxassis uchun bunday javobgarlik nazarda tutilmagan. Bu holat mutaxassis maslahatining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassisning fuqarolik sud ish yurituvidagi protsessual ishtiroki dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Fuqarolik sud ish yurituvida mutaxassisning o'rni odil sudlovni amalga oshirishning muhim va ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda texnika, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa sohalarning murakkablashib borishi sud oldiga ko'plab maxsus bilimlarni talab qiluvchi masalalarni qo'yimoqda. Aynan shu nuqtada mutaxassis – o'z sohasining bilimdon shaxsi – sudga ishning to'g'ri hal etilishi uchun zarur bo'lgan tushuntirishlar, maslahatlar va texnik yordamni taqdim etadi. U ekspertdan farqli ravishda mustaqil tadqiqot o'tkazmaydi, balki mavjud bilimlarni qo'llagan holda sudya va taraflarga ishning ayrim jihatlarini oydinlashtirishga ko'maklashadi. Bu holat mutaxassisni odil sudlovga ko'maklashuvchi, lekin isbot jarayonining bevosita subyekti bo'lmagan shaxs sifatida belgilaydi.

Umuman olganda, mutaxassis fuqarolik sud ish yurituvida maxsus bilimlar talab qilinadigan ishlarning to'g'ri va tezkor hal etilishida muhim rol o'ynaydi. Zero, zamonaviy fuqarolik jamiyatida maxsus bilimlardan foydalanmasdan murakkab texnik, iqtisodiy, tibbiy va boshqa masalalarni hal qilishning iloji yo'q. Shu bois, fuqarolik sud ish yurituvida mutaxassis institutini takomillashtirish O'zbekistonda odil sudlovni yanada samarali va xalqaro standartlarga mos qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Adabiyotlar/Литературы/References

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y.
3. Xabibullayev D.Y. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o'zaro tahlili / D.Yu. Habibullayev // "Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024. – №4.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y.

4. Васьковский Е.В. Учебник гражданского процесса / Е.В. Васьковский. - Москва: Типо-литография А. Э. Ландау.
5. Фурса С.Я. Гражданский процесс Украина / С.Я. Возможность. – Киев: Юринком Интер, 2018.
6. Орлов И.К. Специалист в уголовном процессе: монография / И.К. Орлов. – Москва: Проспект, 2015.
7. Петрухин И.Л. Специалист как участник уголовного судопроизводства / И.Л. Петрухин // Журнал российского права. – 2016. – № 8.
8. Abdurahobov Sh. Sud ish yurituvida maxsus bilimlardan foydalanishning nazariy va amaliy muammolari / Sh. Abdurahobov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi PIV Akademiyasi, 2023.
9. R.Ibragimova. Fuqarolik sud ish yurituvida ekspert va mutaxassislarining huquqiy maqomi va o‘rni.// Odillik mezoni - ilmiy-amaliy huquqiy jurnali, 2026.
10. Петрова И., Чекин Д., Силенок К. Специалист по гражданско-экономическому судопроизводству / И. Петрова, Д. Чекин, К. Силенок // КонсультантПлюс [Электронный ресурс]. – 2019.
11. ENFSI (European Network of Forensic Science Institutes) Guidelines for the Use of Expert Witnesses in Civil Proceedings / ENFSI. – 2020.
12. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi (Zivilprozessordnung – ZPO, § 144). – URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>
13. Fransiya protsessual qonunchiligi (Code de procédure civile). – URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/>